

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

“O‘ZBEKISTON ARABSHUNOSLARI FORUMI I”

Respublika ilmiy-amaliy anjumani

AXBOROT XATI

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti Arabshunoslik oliy maktabi tomonidan 2025- yil 5- aprel sanasida «O‘zbekiston arabshunoslari forumi I» mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman o‘tkaziladi.

Anjuman ilmiy yo‘nalishi, maqsad va vazifalari:

- ✓ Sharqshunoslik ilmining barcha jabhalarini rivojlantirish hamda sohalarga tadbiq etish;
- ✓ Respublikamizda sharqshunoslik, arabshunoslik sohasida bajarilayotgan ishlar bo‘yicha o‘zaro fikr almashish;
- ✓ Yosh olim, magistrant, doktorant va mutaxassilarning ilmiy-tadqiqot ishlarining sifati va samaradorligini oshirish;
- ✓ Respublika arabshunos olimlari bilan bir qatorda, yosh tadqiqotchilarning tajribalari o‘rganish, muhokama etish va sharqshunoslik ilmini yanada rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar yaratish;
- ✓ Respublikamizdagi sharqshunoslik yutuqlarini sohaga oid tashkilotlarida joriy etish bo‘yicha muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha xulosa hamda takliflar tayyorlash.

Ilmiy-amaliy anjuman ishining yo‘nalishlari:

- ✓ O‘rta asr Sharq allomalarining arab tilshunosligiga qo‘shgan hissalari.
- ✓ Arab tilini o‘qitishdagi zamonaviy metodlar.
- ✓ Arab tilining nazariy masalalari.
- ✓ Arab tilini o‘qitishda masofaviy ta‘lim muammolari va uni rivojlantirish yo‘llari.
- ✓ Arab adabiyoti va uning jahon madaniyati rivojida o‘rni.
- ✓ Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik masalalari.
- ✓ Tarjima va tarjimashunoslik masalalari.

Maqola matniga talablar:

Maqolalar o‘zbek, rus, arab, ingliz tillarida qabul qilinadi.

Konferensiyada ishtirok etish uchun quyidagilarga e‘tibor qaratilishi lozim:

Mutaxassislar **2025-yil 15-martga qadar** arabshunoslikoliymaktabi@mail.ru tashkiliy qo‘mita elektron manziliga **ilova*ga muvofiq rasmiylashtirilgan maqola matnini** yuborishlari so‘raladi. *Tashkiliy qo‘mita materiallarni texnik tahrir qilish, shuningdek, maqola qabul qilinmaganda va qaytarilmaganda, bu bo‘yicha izoh bermaslik huquqiga ega.*

Qabul qilingan maqolalar OAK ro‘yxatidagi xalqaro ilmiy bazalarda indekslangan “Sharq filologiyasi” ilmiy jurnalining maxsus sonida nashr etiladi, ***slib.uz (O‘zbekiston), Google scholar.com, cyberleninka.ru (RF), archive.org (AQSH), Open Aire (Yevropa)*** xalqaro ma‘lumotlar bazalarida indekslanadi va e‘lon qilingan har bir maqolaga ***DOI (Crossref)*** raqami beriladi.

Konferensiya ishtirokchilariga sertifikatning elektron varianti, indeksatsiya sertifikati va indekslangan maqolaning pdf formati taqdim etiladi.

To‘lov shartlari: Anjumanga qabul qilingan maqolalar jamlagan imiy jurnal elektron (PDF) shaklida tayyorlanadi. Har bir maqolaga 250.000 (ikki yuz ellik ming) so‘m miqdorida badal puli to‘lanadi. Mualliflarga elektron (PDF) shaklida to‘plam hamda sertifikat berish ko‘zda tutilgan.

Manzil: Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy.

TDSHU, Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti, Arabshunoslik oliy maktabi

Murojaat uchun: Ikrom Bultakov +998 94 617 75 12

Plastik karta raqami: 9860 1601 0612 3831 (Nargiza Saidova)

Konferensiya ishtirokchilari uchun anketa

Respublika		
Shahar,viloyat		
Familiya		
Ism		
Sharif		
Ilmiy darajasi		
Ilmiy unvoni		
Ish joyi		
Telefon raqami		
Telefon raqami (ish joyi)		
Elektron pochta		
Yo‘nalish (sho‘ba)		
Maqola mavzusi		
Ishtirok shakli (onlayn / oflayn)		

Tashkiliy qo‘mita